
TIBBIYOT MUASSASALARINING KUZ-QISH MAVSUMIGA TAYYORGARLIGI O'RGANILDI



Milliy gvardiya Farg'ona viloyati bo'yicha boshqarmasi boshlig'i polkovnik Sh.Akbarov hamda viloyat prokurori B.Ismoilovlar tomonidan Qo'shtepa tumanidagi markaziy shifoxonalarning anomal sovuq hamda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik holati o'rganildi.

O'rganish davomida markaziy shifoxona tug'ruq va bolalar bo'limi hamda Qorakaltak MFYdagi Langar shifoxonasida yaratilgan sharoitlar, isitish qozonlari, isitish tizimi, shuningdek ularning soz holatda ishlayotganligi ko'zdan kechirildi. Ayni paytda tabiiy gaz yoki ko'mir yordamida isitilayotgan mazkur maskanlarning issiqlik darajasini me'yorda ushlab, xavfsizlik qoidalariga amal qilish, ko'mir va o'tin zahiralari yaratish hamda oqilona foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar berildi.



Shuningdek, mutasaddi rahbarlarga kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha tegishli topshiriqlar berildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2023-01-12 13:40:09